

TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINIDAN SO'NG TADBIRKORLIK SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR VA UNING NATIJALARI

Tayronov Yoqubjon Rapiqovich

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Tarix kafedrası mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: yo.tayronov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-2152-4550>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylangandan keyin, tadbirkorlarning yangi avlodining shakllanishi, sanoat egalari hisoblangan mahalliy savdogarlar guruhining vujudga kelishi, ularning savdo ishlari, o'lkadan tashqarida olib borgan faoliyatlari bayon etilgan. Shuningdek, hukmron ma'muriyat ularning faoliyatini cheklashga urinsa-da, lekin o'lkada vujudga kelgan bozor munosabatlari va sanoat taraqqiyoti ta'sirida yirik savdogar va sanoatchilar shakllangan. Ular paxta tozalash, ko'ncilik, g'isht va boshqa sohalarda korxonalar ochib, keng faoliyat yuritdi.

Kalit so'zlar: savdo-sotiq, zavod va fabrikalar, tadbirkorlik, sarmoyador, Turkiston, mustamlakachilik, milliy tadbirkorlar, sanoat rivoji, paxta tozalash, tadbirkorlar qatlami, rus ma'muriyati, yirik boylar.

Аннотация. В данной статье описывается формирование нового поколения предпринимателей после того, как Туркестан стал колонией Российской империи во второй половине XIX века, появление группы местных купцов, считавшихся промышленниками, их торговая деятельность и деятельность за пределами страны. Также, несмотря на попытки правящей администрации ограничить их деятельность, под влиянием рыночных отношений и промышленного развития, возникшего в стране, сформировались крупные купцы и промышленники. Они открывали предприятия по хлопкоочистке, кожевенному производству, кирпичному делу и другим отраслям и вели широкомасштабную деятельность.

Ключевые слова: торговля, заводы и

фабрики, предпринимательство, инвестор, Туркестан, колониализм, национальные предприниматели, промышленное развитие, хлопкоочистка, предпринимательский класс, российская администрация, богатые люди.

Abstract. This article describes the emergence of a new generation of entrepreneurs after Turkestan became a colony of the Russian Empire in the second half of the 19th century. It describes the emergence of a group of local merchants, considered industrialists, and their trading and international activities. Despite attempts by the ruling administration to restrict their activities, large merchants and industrialists emerged under the influence of market relations and the industrial development that arose in the country. They opened cotton ginning, tannery, brickmaking, and other industries and conducted large-scale operations.

Key words: trade, factories, entrepreneurship, investor, Turkestan, colonialism, national entrepreneurs, industrial development, cotton ginning, entrepreneurial class, Russian administration, wealthy individuals.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ /INTRODUCTION). Turkistonda XIX asr o'rtalaridan Rossiya imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalarini yanada kengayishi bilan mahalliy yirik savdogarlarning safi ortib bordi. Ularning ko'pchiligi imperiyaning barcha hududlarida keng savdo qilish huquqini ham qo'lga kiritdi. Masalan, marg'ilonlik ipak savdosi bilan shug'ullangan Boboyevning fabrikasida ishlab chiqarilgan buyumlar uzoq vaqt Rossiya imperiyasi hududidagi turli millatlarga mansub katta savdogarlarining eng

sevimli mahsulotlaridan biri bo'lgan. Bundan tashqari, Ismoil Mahzum, Muhammad Ibrohim, Mir Salimboy, Muhammad Karimbek kabi savdogarlar mintaqada mashhur edi [1.226].

XIX asrning ikkinchi yarimida o'lkaga xorijiy sarmoyaning kirib kelishi bilan ba'zi savdogar-tadbirkorlar katta mablag'lar evaziga raqobatbardosh zavod-fabrikalar barpo etib, Rossiya imperiyasidagi sarmoyadorlar bilan bellashib, o'zlarining savdo ko'lamini yanada kengaytirdi. Ana shundaylardan biri, andijonlik Mirkomil Mirmo'minboev edi. Uning asosiy savdo munosabatlari chet ellardagi yirik firma va banklar bilan, xususan, "Aka-uka Shlosberg", "Knop", "Aka-uka Steppun" kabi savdo-sotiq firmalari hamda Moskva hisob banki, Rus- Xitoy, Rus-Osiyo banklari bilan olib borilgan[2]. Shuningdek, Toshkent shahrida ham bir qator shunday savdo ko'lamiga ega bo'lgan sarmoyadorlar bor edi. Masalan, shaharning Labzak ko'chasida istiqomat qilib, yirik tadbirkorlik bilan shug'ullangan ota-bola ishbilarmon savdogarlar Yoqubhoji va Mahkamboyilar shular jumlasidandir. Xususan, Yoqubhoji mahallasi uchun ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirib, mahalliy xalqning hurmatiga sazovor bo'lgan. Uning XIX asrning oxirlarida shaharda 16 ta karvonsaroyi, 4500 dan ortiq do'konlari bo'lganligi manbalarda o'z aksini topgan. Uning savdo do'konlarining aksariyati shahardagi "Eski Juva" bozori va uning atroflarida joylashgan edi. Shu bilan birga u Rossiya imperiyasining turli shaharlaridagi hamkorlari bilan ham keng savdo aloqalarini olib borgan. Shuningdek, u Turkiston zaminining eng boy, saxiy, kambag'alparvar va taraqqiyparvar kishilaridan biri bo'lib, xalq manfaati va yurt kelajagi uchun qo'shimcha ravishda 10 ta masjid, 4 ta ko'prik va bir necha karvonsaroilar ham qurdirgan edi[3.23]. Tojimuhammad Isamuhammad o'g'li esa savdogarlar ichida birinchilardan bo'lib, Angliya, Fransiya, Germaniyaga borib, u yerlardan tijorat ishlarini o'rgangan va Moskvada dastlab o'z savdo firmasini ochgan. Shuningdek, Parij, Xelsinki, Peterburg, Xarkov kabi yirik shaharlarda o'z savdo do'konlarini barpo etgan edi[4.]. Turkistonda bu kabi yirik tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlarning soni

XIX asr ikkinchi yarimi va XX asr boshlarida juda ko'pchilikni tashkil etgan edi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).Rossiya imperiyasi tomonidan o'lka butunlay bosib olingandan keyin hukmron rus ma'muriyati o'z maqsadi yo'lida barcha sohalarda o'zgarishlar sodir etib, mintaqaning har tomonlama talanishiga sababchi bo'ldi. Qishloq xo'jaligida, sudlov va boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlar ayniqsa, ahamiyatli bo'ldi. Hukmron doira vakillari mahalliy millat manfaatlarini mensimay, ularning madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini oyoq osti qilishga intilib, har qanday taraqqiyotga qattiq qarshilik qilishdi. Shuningdek, ayrim borada milliy tadbirkorlar sinfining shakllanishi va rivojlanishiga ham to'sqinliklar qilib, ular faoliyatini cheklashga urindi. Lekin, vujudga kelgan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat sarmoyadorlar qatlamini o'sib borishiga zamin yaratdi. Mustamlaka sharoitida ular ikki guruhga ajralib qoldiki, uning birinchisiga qadimdan shakllanib kelgan boy-savdogarlarning avlodlari kirdi. Ikkinchi guruhga bevosita Yevropa va rus kapitali ta'sirida paydo bo'lgan, bozor munosabatlari hamda sanoat taraqqiyoti ortidan o'z mehnatlari evaziga mablag' to'plagan sanoatchi-boylar kirar edi. Birinchi guruh vakillarining mulklari ota-bobolaridan meros bo'lib, katta-katta yerlar va joylardagi ko'chmas mulklardan iborat edi. Ular ulgurji savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanish orqali mablag'larini orttirish bilan birga merosiy mulklaridan ham katta foyda olishar edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan sharoit taqozosi bilan ularning ko'pchiligi yirik savdo-sanoat egalariga aylanib bordi. Mirkomil Mo'minboyev, Mullo Abdulloh Muhammedov, Bobojon Sarimsoqov, Ahmadjon Yusufboyev, Nig'matulla Xo'jayevlar shular jumlasidandir[5.18]

Turkistonda avvalo boshqa millatga mansub tadbirkorlarining sanoat korxonalari paydo bo'la boshladi. Masalan, Toshkent shahrida 1867-yilda birinchi Yevropa tipidagi suv tegirmoni qurilgan bo'lsa, uni ikkinchisi, kapitan Kukurin tomonidan 1868-yilda ishga tushirildi. Yana shu yilda sanoat egasi M. A. Xuludov shaharda birinchi bo'lib, Solor arig'i

bo'yida ko'n zavodini qurgan va 1877-yil esa Kunaysev tomonidan uni ikkinchisi barpo etilgan. Bularning ta'sirida 1886 yil shaharning eski qismida savdogar Y. Karimboyev ham xuddi shunday ko'n zavodini qurib ishga tushirgan. 1879-yilda esa yana bir mahalliy ishbilarmonlardan S.I. Nazarov birinchi bo'lib paxta tozalash zavodini qurishga muvofiq bo'ldi [6.13.]. Shu tarzda mintaqadagi rus sanoatchilari ta'sirida yirik mahalliy savdogarlar, sanoatchi boylar guruhi shakllana boshladi. Ularning ayrimlarining hatto, Peterburgda, Gelsingforse kabi shaharlarda alohida firmalari bor edi (7. 65).

Bulardan tashqari Turkistonda tamaki, gugurt, shoyi to'qish, sovun, g'isht, yog'moy, karton, sham, elim, pilla quritish fabrika va zavodlari, bosmaxonalar tashkil etilib, ular soni 1915-yilga kelganda Turkistonning uch viloyatida (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand) 753 taga etgan va bu korxonalarining ko'pchiligi mahalliy millat tadbirkorlariga tegishli edi (8.2). Ammo ularning korxonalari dastlabki vaqtlarda oddiy ko'rinishga ega bo'lib, mehnat unumdorligi ham yuqori emasdi. Birgina, Toshkent shahrining eski qismida yillik daromadi 282000 rublga teng mahalliy ishbilarmonlarga qarashli 598 ta korxona mavjud bo'lgan. Ammo ular rus sanoatchilarining korxonalariga nisbatan kam mahsulot ishlab chiqarar va daromadi ham oz edi. Buning sababi rus ishbilarmonlariga qarashli zavodlar zamonaviy texnika vositalari bilan to'liq ta'minlanganligida edi. Garchi rus sanoatchilari shahar umumiy savdogarlarining ichida kamchilikni tashkil qilsa-da, lekin olayotgan foydalari yuqori bo'lgan. 1889 yilda shaharda jami 42642 kishi savdo bilan shug'ullangan bo'lsa, shulardan atiga 1206 kishigina rus millatiga mansub edi (9.207). Bu raqamda mayda savdogarlar, baqqollar, bozorlardagi savdo ahllari ham hisobga olingan.

XIX asr oxirlarida Toshkent shahridagi ishbilarmon savdogarlar orasida mahalliy millat vakillarining salmog'i ortib borib, sanoatchi-boylarga aylanish jarayonlari jadal kechdi. Masalan, aka-uka O'rinboyevlar, Shosolixovlar qisqa vaqt ichida millionchi boylarga aylandi va mazkur vaqtda ularning

qo'l ostida 190 ta turli hajmdagi savdo va hunarmandchilik korxonalari bor edi. (10. 398). Shuningdek, A. Abdumalikboev hamda uning bu savdo borasidagi hamkori M. Rasulmuhammedovlarning bir yillik pul aylanmasi 500000 rubldan 1 milliongacha bo'lgan yirik zavodlari ham mavjud edi (11.398). Buning ta'sirida mahalliy sarmoyadorlarning aksariyati o'z mablag'larini yangi zavod va fabrikalar qurishga sarfladilar. Masalan, 1884 yilgi ma'lumotlarga qaraganda toshkentlik savdogar Badalboy Karimboyev va Mira'zam Mirayupovlarning bir yilda 30 ming rubllik mahsulot ishlab chiqaradigan ko'n zavodlarini, Tojiboy va Yoqubjon Yusupovlar esa g'isht korxonalarini faoliyatini yo'lga qo'ygan edi (12.58) G'isht zavodlari mintaqaga ruslar kirib kelmasdan ilgari ham mavjud bo'lib, ularga talab u qadar katta emasdi. Lekin o'lkada yangi shaharlarning vujudga kelishi va u erda qad rostlayotgan aholi uylari hamda hukumat binolarini g'ishtdan qurilishi ushbu borada yangi izlanishlarga zamin yaratgan. Natijada XX asr boshlarida mahalliy ishbilarmonlar orasida ham bu sohaga alohida ahamiyat qaratilib, bir necha g'isht korxonalarining egalari vujudga keldi. Masalan, Toshkentda Parkent ko'chasida sarmoyador Saidkarim Saidazimboy o'g'liga tegishli mazkur tipdagi zavod keng faoliyat olib borgan edi (13.4). Endi mahalliy ishbilarmonlar evropacha usulda g'isht pishirishni o'rganib olib, yangi shaharlarning g'ishtga bo'lgan ehtiyojini ta'minlay oladigan korxonalar qurishga kirishdi. Yirik davlat miqyosidagi tashkilotlar ham mahalliy ishbilarmonlar bilan bu borada o'zaro shartnomalar tuzishga harakat qilgan edilar. Masalan, 1872-yilda "Yarmarka va karvonsaroylarni tashkil etish qo'mitasi" tadbirkor Mulla Abduraim bilan yaxshi pishirilgan g'ishtlarni etkazib berish yuzasidan shartnoma imzolagan edi (14.29). Keyinchalik bu kabi zavod egalari o'z korxonalarining faoliyatini kengaytirib, keng jamoatchilikka xizmat qilgan va bu xalqqa ma'lum bo'lishi uchun milliy matbuot sahifalariga reklamalar berib borgan. Masalan, Samarqanddagi tadbirkorlardan biri Xoji Abdulqodir usta Muhammad Boqi o'g'lining g'isht va koshin zavodida arzon baholarda g'isht va koshinlar

sotilishi “Samarqand” gazetasida e’lon qilingan edi. Shuningdek unda madrasa va maktablarga moddiy yordam sifatida oluvchilarga, xayriya imoratlari uchun va ulgurji oladigan xaridorlarga yanada arzonroq sotilishi ham ma’lum qilingan. Bundan ko’rinadiki, g’isht pishiradigan zavodlar yil sayin takomillashib o’z mijozlariga ega bo’lib borgan. Ammo, shuni qayd etish joizki, o’lkada bu xildagi zavodlar boshqa (paxta tozalash va qayta ishlash, yog’, moy, ko’n kabi) sanoat korxonalariga nisbatan keng yoyilmagan edi. Misol uchun 1915-yilgacha butun Turkistonda jami 20 ta (Farg’ona viloyatida 9 ta, Sirdaryo viloyatida 7 ta va Samarqand viloyatida esa 4 ta) g’isht zavodlarining mavjudligi fikrimiz tasdig’idir (15.85). Demak, Muhammad Boqi o’g’lining Samarqanddagi g’isht va koshin zavodi viloyatdagi 4 ta shu kabi korxonaning bittasi bo’lgan. Yangi shaharlarda qad ko’targan imoratlarni barchasini loyihalashtirishda mahalliy an’analardan foydalanilgan edi.

Shu bilan birga Toshkent shahrida sanoatchilar boylar miqdori ortib, ularning safi muntazam kengayib borgan. Ramazon Qozoqov va Mulla Nurmuhammedovlar ham ularning qatoriga qo’shilgan. Chunki, ularning ham yiliga 20 ming so’mlik mahsulot ishlab chiqaradigan terini oshlash va qayta ishlash zavodlari bor edi. Shuningdek, Rahmatbobo Holboboyev, Xo’jaahmad Abdujabborov, Inog’ombobo Roziqboyev, Ashur Bobojonov kabi ko’n zavodi egalarini ham ular qatoriga kiritish maqsadga muvofiqdir. Arxiv manbalariga tayangan holda ularning ishlab chiqargan mahsulotlariga qarab quyidagi 3 guruhga ajratish mumkin: birinchi, yirik korxonalar bo’lib, unga Mira’zam Mirayupov va Mulla Nurmuhammedovlarning zavodlarini kiritish mumkinki, ularning yillik ishlab chiqargan mahsuloti 30 ming so’mdan ortiq edi. Ikkinchi o’rtacha korxonalar bo’lib, unga Badalboyev, Roziqboyev, Abdujabborov, Holboboyev kabi sanoatchilarning zavodlarini kiritish mumkin edi. Ularning ishlab chiqargan mahsulotlari bir yilda 10 ming rubldan 20 minggachani tashkil etardi. Uchinchi guruhni Ashurboy va Qosimboy kabilarning mayda korxonalari tashkil etib, ularning yillik

daromadlari 5 mingdan 10 ming so’mgachani tashkil etgan.

Bundan tashqari teri savdosi bilan shug’ullanib katta daromad orttirgan toshkentlik savdogarlar ham bo’lganki, ular nafaqat mintaqada balki, Yevropa bozorlarida ham o’z mollarini sotishga muvaffaq bo’lishgan edi. Masalan, aka-uka Arabovlar va Ubaydulla Qosimxo’jayevlar har yili 300 mingtagacha, Latif Qosimxo’jayev esa 100 000 dona teri mahsulotlarini Yevropa bozorlariga jo’natib turar edilar (16. 177.) Bundan ma’lum bo’ladiki, mustamlakachilik rejimi sharoitida ham mahalliy tadbirkorlar xususan, ko’nchilik bilan shug’ullangan ishbilarmonlar Yevropa bozorlarida o’z mollarini sotgan. Biroq, ularning bu faoliyatlarini yanada kengayishiga hukmron doira vakillari qarshilik qilishgan. Buning sababi birinchidan, mahalliy tadbirkorlarning g’arb sarmoyadorlari bilan aloqalari nisbatan mushkullik bilan qo’lga kiritilgan O’rta Osiyo masalasi uchun xavf tug’dirardi hamda Buxoro va Xiva davlatlari hali to’liq bo’ysundirilmagan edi, ikkinchidan, mahalliy savdogarlarning Yevropa bozorlariga chiqishlari ularning shaxsiy boyliklarining ortishiga va dunyoqarashini kengayishiga olib kelar edi. Natijada millatparvar mulkdorlar o’z xalqi manfaati uchun turli ijtimoiy yordamlar berishga, aholini ortlaridan ergashtirib, ozodlik, mustaqillik uchun kurashga chorlashi mumkin edi. Bunday holatni istamagan ma’muriyat vakillari imkon darajasida ularni bu boradagi faoliyatlariga to’sqinliklar qilardi. Odatda bunday qarshiliklar quyidagi ko’rinishlarga ega bo’lard;

O’rta Osiyoga kirib kelgan ruslar paxtaga xom ashyo sifatida qarab, ushbu sohani rivojlanishi va shakllanishini ta’minlagan edi. Shuning uchun Turkistonda ham aksariyat sanoat korxonalari dastavval paxta tozalash va qayta ishlash zavodlari sifatida qaror topdi. Ko’plab rus sanoatchilari o’zlarining asosiy mablag’larini paxta sanoatiga sarflashib katta foyda ola boshladi. Buning ta’sir doirasida esa mahalliy millat vakillari ichidan ham mazkur soha bilan shug’ullanuvchi sanoat egalari shakllanib bordi. Bu haqida mahalliy tarixchilardan biri Mullo Olim Mahmudhoji o’zining “Turkiston tarixi” asarida shunday

ta'kidlagan edi; "...musulmonlarimizdin ham sanoat korxona egalari-zavodchilar etishib chiqdi, bular o'z korxonalaridan katta foyda olmoqdalar" (17.Мулло Олим Махмудхожи., 1915:166). Bu kabi sanoatchilar rus adabiyotlarida "paxtachi boy" deb atalib, ularning eng yiriklari har birida to'rt-beshtadan paxta tozalash zavodlari bo'lgan M. Mo'minboyev, R. Nazarboyev, A. Temirboyevlar edi. Shuningdek, namanganlik tadbirkor S. Hudoyorbekovning Namanganda, To'raqo'rg'onda va Andijon shaharlarida shu kabi zavodlari mavjud edi.

Birinchi paxta tozalash zavodiga 1879-yilda Toshkent shahrida ishbilarmon S.I. Nazarov tomonidan asos solingan edi va unda 110 arrali 6 ta jin(paxta tozalash mashinasi) bo'lgan va bular bug'da, arralari esa qo'lda harakatga keltirilar va jami 12 kishi ishlar edi. Bunday korxonalar Qo'qonda Madrahim Po'latov, Samarqandda Azizxon Najmiddinov, Marg'ilonda Mirza Qosimovlar tomonidan ham ketma-ket barpo etilgan edi. Shundan keyin ko'pchilik mahalliy savdogarlar paxta zavodlari qurishga kirishib, u erlarda talab darajasidan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarishga intilgan. Masalan, 1885-yilda toshkentlik tadbirkor Shobek Hakimboyevning Ko'kcha dahasidagi paxta tozalaydigan zavodida 3 ta jin, paxta toylaydigan 1 ta uskuna, 1 ta suv dvigateli, 11 ishchisi bo'lgan va 1891-yilda ushbu korxona 68400 so'mlik mahsulot tayyorlangan. Yana bir ishbilarmon Yo'lchiboy To'ychiboyevning

ham xuddi shu dahadagi paxta tozalaydigan zavodida 1891-yilning besh oyida 8500 pud paxta tozalangan, ya'ni har bir oyda o'rtacha 1700 puddan. Agar shunday bo'lsa, ushbu korxona 12 oy davomida 20400 pud paxta tozalagani ma'lum bo'ladi. Shuningdek, shaharning Shayxontohur dahasida sanoatchi tadbirkor Mulla Aminboyning ham paxta tozalash korxonasi bo'lib, unda 1892-yilning o'zida 60 ming 10000 rubllik paxta tozalangan edi. Va Isobek Hakimboyevning shunday zavodida ham shu yilning 9 oyi davomida 68400 so'mlik paxta qayta ishlangan edi [18.23]. Bundan tashqari toshkentlik savdogarlar Turkistonning turli viloyat markazlari va shaharlarida ham paxta zavodlari barpo etishgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanganidan keyin mintaqada yangi tadbirkorlar qatlami shakllana boshladi. Ular o'z mehnatlari va mablag'lari evaziga turli xil zavod va fabrikalarni bunyod etib, yirik sarmoyadorga aylanib bordi. Mustamlaka ma'muriyati mahalliy madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlarga hurmatsizlik ko'rsatib, milliy sarmoyadorlarning faoliyatini cheklashga urinsa-da, lekin o'lkada bozor munosabatlari va sanoat taraqqiyoti ta'sirida yirik savdogar va sanoatchilar vujudga keldi. Ular paxta tozalash, ko'ndirish, g'isht ishlab chiqarish va boshqa sohalarida korxonalar ochib, hatto Yevropa bozorlarida savdo aloqalarini o'rnatdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Неболсин Н.П. Очерки торговли России с Средней Азией. –СПб, 1856, -с.226.
2. Akmal Akrom o'g'li. Mirkomilboy qanday shaxs edi?// Sharq yulduzi, 1992. 5-son 88-b.
3. Зиёев Н., Маҳкамов Б. Ёқубхожи ва Маҳкамбойларнинг ҳаёти, фаолияти ва тақдири.- Т.,Фан, 2008.23-б.
4. Tojimuhammad Isamuhammad o'g'lini Parijga sayohati. Turkiston viloyati gazetisi 1900-yil, №45.
5. Юлдашев Р.А. Формирование национальный буржуазии в Туркестане (конец XIX – начало XX в.в.): Автореф. дисс....канд. ист. наук.–Т., 1994, -С.18.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 1932-hujjat, 13-varaq.
7. Кастелская З.Д. Из истории Туркестанского края. М. 1980. 65-с.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 1526-hujjat, 2-varaq.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3167-hujjat, 207-varaq.

10. Добросмыслов А.И. Ташкент прошлом и настоящим. Т. 1911. 398-с.
11. O'sha joyda.
12. Заорская В.В., Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. Пг. 1915. 58-с.
13. Канопка С.Р. Туркестанский край (Торгово-промышленный отдел). Т. 1913. 14-с.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg'arma, 16-ro'uxat, 340-hujjat, 29-varaq.
15. Мусаев Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг вужудга келиши. Т. 1999. 85-б.
16. Кастелская З.Д. Из истории Туркестанского края. М. 1980. 177-с.
17. Мулло Олим Маҳмудхожи. Тарихи Туркистон. -Т. 1915. 166-б.
18. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 36-jamg'arma, 1-ro'uxat, 3822-hujjat, 23-varaq.